

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasida** belgilangan vazifalarni so'zsiz amalga oshirish, respublika hududlaridagi ekologik muammolar yechimiga ta'lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo'shish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasini qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb ataladi) **1-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha tadbirlar rejasini (keyingi o'rinlarda Tadbirlar rejasini deb ataladi) **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar Konsepsiyani va Tadbirlar rejasini amalga oshirish doirasida ustuvor yo'nalishlar etib belgilansin:

“**Ta'lim to'g'risida**”gi va “**Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida**”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta'limning samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish;

ta'lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish;

ta'lim oluvchilarning e'tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas'uliyatini kuchaytirish;

ekologik ta'limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

ekologik ta'lim sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish kafolatlarini va ustuvorligini ta'minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organlari va ta'lim sohasining o'zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish.

3. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Halq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Maktabgacha ta'lim vazirligi Konsepsiya va Tadbirlar rejasining bajarilishi to'g'risida har chorakda Vazirlar Mahkamasiga axborot taqdim etilishini ta'minlasinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari — transport vaziri A.J. Ramatov, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi B.T. Qo'chqorov, Bosh vazir o'rinbosari A.A. Abduxakimov, xalq ta'limi vaziri Sh.X. Shermatov, oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri I.U. Majidov va maktabgacha ta'lim vaziri A.V. Shin zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2019-yil 27-may,
434-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-
maydagi 434-son qaroriga

O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish

KONSEPSIYASI

Ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, so'nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi.

Biroq, ekologik ta'limni amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili ekologik ta'limni tashkil etishda bu boradagi islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi jiddiy muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan:

barcha turdagi ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni [4-moddasida](#) nazarda tutilgan ekologiya o'quvining majburiyligiga oid talablar yetarli darajada bajarilmayapti;

amaldagi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmunan ekologik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar bilan zarur darajada boyitilmagan;

ekologik ta'lim yo'nalishida ilg'or milliy va xorijiy tajribani o'rganish, ular asosida ta'lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq parametrlari ishlab chiqilmagan;

ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalda bo'lgan ta'lim dasturlari bugungi kundagi global ekologik muammolarni bartaraf etish, mavjud ekologik xavf-xatar darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni qayta tiklashga qaratilgan umummilliy tadbirlar mohiyati bilan muvofiqlashtirilmagan;

Oldingi tahrirga qarang.

maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim dasturlarining mavzulari bugungi kun talablariga javob bermaydi, jumladan, ularda ta'lim oluvchilarda ekologik ongini shakllantiruvchi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, ona tabiatni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasiga oid mavzular yetarli emas;

(muqaddimaning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)

ta'lim muassasalarida ekologik targ'ibot tizimi ham qoniqarsiz ahvolda, bu borada ekologik targ'ibotni amalga oshirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish va ushbu mexanizmlarni munosib rag'batlantirish tadbirlari yetarli darajada amalga oshirilmayapti;

ekologik ta'limga oid elektron-metodik vositalarni yaratish va innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqilmagan;

ta'lim hamda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi organlari o'rtasida ekologik ta'lim tizimini takomillashtirish borasidagi amaliy hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan, xususan, o'tgan yillar davomida ekologik ta'lim tizimini isloh qilish yuzasidan faqat takliflar bildirilgan xolos;

ekologik ta'lim sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik jihatdan ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasiga oid o'quv qo'llanmalari, o'quvchi va talabalar uchun zarur darsliklar yetarli emas;

ta'lim dasturlari to'liq qayta ko'rib chiqishga muhtoj, jumladan, ular respublikada so'nggi vaqtlarda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilgan islohotlardan kelib chiqib tubdan takomillashtirilishi lozim.

Shu munosabat bilan aniq maqsad va vazifalarni hamda yo'nalishlarni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb ataladi) muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ekologik ta'lim tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

1-bob. Konsepsiyaning maqsadi va vazifalari

1. Konsepsiyaning asosiy maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek, ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahonning ilg'or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirishdan iborat.

2. Ushbu maqsadga erishish, uni amalda ro'yobga chiqarish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

“Ta'lim to'g'risida”gi va “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni izchillik bilan bosqichma-bosqich ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish va shu asosida ekologik ta'limning samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish;

ekologik ta'lim-tarbiya berishni, ekologik bilimlarni targ'ib qilishni, noshirlik faoliyatini, ko'rik-tanlovlar o'tkazishni, ijtimoiy reklama va shu kabilarni tashkil etish;

ta'lim dasturlarini mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish va zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish;

ta'lim oluvchilarning e'tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmas manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish;

ekologik ta'limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

ekologik ta'limning sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini, barqaror rivojlanishi kafolatlarini va ustuvorligini ta'minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat organlari ta'lim sohasining o'zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish.

2-bob. Konsepsiyada belgilangan vazifalarni uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirish

3. O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'lim:

davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari, shuningdek, ularga qarashli tashkilotlar orqali joriy etiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

4. O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'lim quyidagi ta'lim turlariga muvofiq amalga oshiriladi:

maktabgacha ta'lim va tarbiya;

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

professional ta'lim;

oliy ta'lim;

oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

maktabdan tashqari ta'lim.

(4-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.06.2021-y., 09/21/345/0522-son)

3-bob. Maktabgacha ta'lim tizimida ekologik ta'limni takomillashtirish

Oldingi tahrirga qarang.

5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida birinchi navbatda ushbu ta'lim turi uchun belgilangan “Bolajon” tayanch dasturi qayta ko'rib chiqiladi, dasturda bolalarda ona tabiatni asrab-avaylash borasidagi ilk tasavvurlarni uyg'otishga hamda uni asrab-avaylash, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi mavzularni ko'paytirishga e'tibor qaratiladi.

(5-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)

Oldingi tahrirga qarang.

6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalda bo'lgan tayanch dasturda belgilangan ekologik ta'limga oid mavzular va amaliy mashg'ulotlarni to'laqonli tashkil etish maqsadida "Ekolog bolajon" dasturi ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)

7. Ta'lim dasturlari o'rta, katta va maktabgacha tayyorlov guruhlar uchun jonsiz tabiat (o'simliklar dunyosi), jonli tabiat (hayvonot dunyosi) hamda sayrda bo'lib o'tadigan jonsiz va jonli tabiat tushunchalarini uyg'otishga yo'naltiriladi.

Bunda, mavzularni qayta belgilashda yer yuzida, shu jumladan, yurtimizda yo'qolib borayotgan va kamyob turdagi o'simlik va hayvonot dunyosi hamda ularni asrab-avaylash masalasiga alohida urg'u beriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

8. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim dasturlarini atrof muhitni muhofaza qilish va atrofimizdagi olamni toza saqlash, shu jumladan, maishiy chiqindilardan tozalash kabi tushunchalar bilan boyitib boriladi.

(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)

Oldingi tahrirga qarang.

9. Har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti ekologik burchaklar tashkil etish hamda ularni zarur materiallar bilan ta'minlashni asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilab oladi.

(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)

10. Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyalanuvchilarning ekologik ongi ularning ko'ziga yaqqol tashlanadigan atrof tabiiy muhit (er, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi) bilan "Ona tabiat" mavzusida ochiq havoda tanishtiruv soatlari o'tkazish, rasmlar chizdirish, atrof olam haqidagi she'rlarni yod oldirish, mashqlarni bajartirish va turli mavzudagi o'yinlarni tashkil etish orqali shakllantiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

11. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 21-mart — Navro'z bayrami, 1-aprel — Xalqaro qushlar kuni, 15-aprel — ekologik bilimlar kuni, 22-aprel — Xalqaro Yer kuni, 5-iyun — Butunjahon atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish kuni kabi ekologik sanalarga bag'ishlab ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladi.

(11-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Shuningdek, muhim ekologik sanalarga bag'ishlangan mashg'ulotlarni o'tkazish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagoglari uchun maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqiladi.

(11-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan ekologik sanalar bo'yicha turli yoshdagi guruhlar uchun "Ekolog bolajon" dasturi asosida tizimli mashg'ulotlar rejasi va dasturlar ishlab chiqiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

12. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ekologik yo'lakchalar" tashkil etiladi, O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik va hayvonlar haqidagi dastlabki tushunchalar tarbiyalanuvchining ongiga singdiriladi, muhofaza qilinadigan o'simlik va hayvonlar rasmlarini chizish orqali tarbiyalanuvchilarda dastlabki ekologik bilimlar shakllantiriladi.

(12-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)

Oldingi tahrirga qarang.

13. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun talablar asosida tarbiyalanuvchilarni atrof muhit, tabiat bilan tanishtirish masalalarini qamrab olgan "Bolajon" tayanch dasturida belgilangan vazifalar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi orqali amaliyotga joriy etiladi.

(13-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)

14. Tarbiyalanuvchilar uchun ona tabiatni asrab-avaylash va ularda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini kuchaytirish mavzusida turli teatrlashtirilgan tomoshalar va sahna ko'rinishlari tashkil etiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Bunda yilning har choragida kamida bir marta respublikaning hududlarida joylashgan madaniyat muassasalari (teatr va boshqa tomoshagohlar) tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ona tabiatni asrab-avaylash mavzusidagi tomoshalar namoyish qilinadi.

(14-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)

15. Tarbiyalanuvchilarda ona tabiatga nisbatan mehr hissini uyg'otish, ularning ekologik tarbiyasini yanada kuchaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining roli yanada kuchaytiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Bunda markaziy telekanallarda bolalar uchun maxsus ekologik ko'rsatuvlar tashkil etiladi, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari uchun maxsus mo'ljallangan davriy nashrlarning chop etilishi qo'shimcha ravishda rag'batlantiriladi.

(15-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)

4-bob. Umumiy o'rta ta'lim tizimida ekologik ta'limni takomillashtirish

16. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish parametrlaridan kelib chiqqan holda qaytadan tahlil qilinadi va qo'shimcha indikatorlar belgilanadi.

17. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari mazmuni quyidagi malakalar bilan boyitiladi:

o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim mazmuniga keng singdirish;

o'quv fanlari doirasidagi ekologik bilimlarni amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy topshiriqlar bilan boyitish (nazariya yoki muhokamadan amaliyotga o'tish);

matematika, iqtisodiy bilim asoslari fanlari mazmunini tejamkorlikka oid aniq iqtisodiy-ekologik masalalar bilan boyitish;

o'quvchini o'zini o'zi va o'zgarlar faoliyati natijalarini oldindan ko'ra olish va baholashga o'rgatish maqsadida geografiya, matematika, biologiya, iqtisodiy bilim asoslari fanlari mazmuniga ekologik baholashga oid bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarning yoshiga mos tarzda quyi sinflardan (VII — IX sinflar) boshlab kiritib borish.

18. Umumiy o'rta ta'lim tizimida ekologik bilimlar o'quvchilarning yoshi, jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda sinflar darajasida farqlanishi asosida tashkil etiladi.

Bunda bilim berish "oddiydan murakkabga", "uzviylik va uzluksizlik" kabi pedagogik tamoyillarga tayangan holda nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligiga, o'quvchilarda ekologik madaniyat hamda tarbiyaning bosqichma-bosqich shakllanishini ta'minlaydigan maqsadli tizimga aylanishi kerak.

19. Umumiy o'rta ta'lim tizimida ekologiyaning nazariy asoslariga oid bilimlar va ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan bilim, ko'nikma va malakalar mavjud o'quv fanlari mazmunida uzviylik asosida beriladi va bir butun kompleks tarzda ifodalanadi.

Bunda umumiy o'rta ta'lim tizimini tamomlagan shaxs minimal darajada ekologik tushunchalar, xulq-atvor qoidalari (ekologik madaniyat) to'g'risida bilimga ega bo'ladi, ekologik bilimlar fanlar mazmuniga majburlovchi chora sifatida emas, fan mazmunidan kelib chiqqan holda singdiriladi.

20. Umumiy o'rta ta'lim tizimida ekologik ta'lim quyidagi bosqichlarda olib boriladi:

boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);

umumiy o'rta ta'lim (V — XI sinflar).

Boshlang'ich ta'limda ekologik ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga e'tibor qaratiladi.

21. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar o'quv fanlari doirasida qo'shimcha ravishda:

suvni tejash va asrash;

atmosfera havosining ahamiyati va uni muhofaza qilish;

yer resurslari va yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish;

o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish;

chiqindilarni yig'ish va joylashtirish;

O'zbekistonning go'zal va takrorlanmas tabiatini asrash;

o'zi yashaydigan qishloq (shahar) tabiatini asrashda faol ishtirok etish;

O'zbekistondagi qo'riqxonalar va tabiat bog'lari to'g'risida;

Orol dengizi fojiasi to'g'risida umumiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

22. Umumiy o'rta ta'lim o'quv fanlari tarkibiga qo'shimcha ravishda:

a) musiqaga oid fanlarga ona tabiat o'quvchining ota-onasidek azizligi mavzusidagi qo'shiqlarni yoddan bilish hamda kuylay olish;

b) tasviriy san'atga oid fanlarga:

tabiat manzaralarini kuzatish va tasvirlay olish;

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobidan eng noyob va kamyob bo'lgan o'simlik va hayvonot turlarini o'zi tanlab chiza olish;

tabiatga zarar yetkazishning, shu jumladan, chiqindilar belgilanmagan joylarga tashlanishning salbiy oqibatlarini tushuna olish;

inson va tabiat o'rtasidagi mehr-muhabbatni kuchaytirish;

global ekologik muammolarga oid manzaralarni tasvirlay bilish;

v) davlat va huquq asoslari fanlariga:

O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasining](#) ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilishga oid qoidalari;

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi [Qonuni](#);

g) iqtisodiy bilim asoslariga oid fanlarga:

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ekologik talablarga rioya etish zarurligi;

atrof muhitni ifloslantirganlik uchun alohida to'lov tizimlari mavjudligi;

d) kimyo asoslariga oid fanlarga:

atmosfera va ozon qatlamini yemiruvchi moddalar va ularning hususiyatlari;

maishiy va sanoat chiqindilarini joylashtirishda chiqindilar tarkibidagi moddalarning tabiatga salbiy ta'siri;

j) biologiya asoslariga oid fanlarga:

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan noyob va kamyob o'simlik va hayvonot turlari;

O'zbekistondagi qo'riqxonalar va tabiat bog'laridagi rang-barang hayvonot olami va o'simlik dunyosi turlari, ularning tarqalish hududlari;

o'rmonlar, ularning ahamiyati va o'rmonlarni tabiiy holda saqlab qolish;

z) geografiyaga oid fanlarga muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning tavsifi to'g'risidagi mavzular, zarur bilimlar va ma'lumotlar kiritiladi.

23. Umumiy o'rta ta'lim uchun mo'ljallangan darslik va o'quv qo'llanmalari tegishli mavzularga ekologik madaniyatga oid bilimlarni chuqur singdirish orqali takomillashtiriladi.

Mutaxassislar tomonidan umumta'lim maktablari uchun o'quvchilar yoshiga mos ravishda atrof muhitni muhofaza qilish, ichimlik suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi dolzarb muammolar yuzasidan o'quv-ko'rgazmali materiallar, videoroliklar va didaktik materiallar ishlab chiqiladi.

Umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan fan dasturlari mazmuniga mos ravishda ekologik ta'lim mavzulari kiritiladi. Bu borada I sinfdan XI sinfgacha o'qitiladigan fanlar mazmuniga "Uy hayvonlari va parrandalari", "Yovvoyi hayvonlar", "Qo'riqxonalar, hududlarning o'simlik va hayvonot dunyosi", "O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi, "Zararkunandalarga qarshi kurashish va ularni yo'qotish", "Sog'lom turmush tarzi me'yorlariga rioya qilish", "Ekologiya va hayot", "Atmosfera havosi va suvlarni muhofaza qilish", "Tabiat va uning boyliklarini asrash", "Biologik xilma-xillikni saqlash va uni ko'paytirish", "Atrof muhit chiqindilar bilan ifloslanishining oldini olish" kabi mavzular kiritiladi.

24. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ekologiya to'garaklari o'quv dasturlariga yangi, samarali va ta'sirchan mashg'ulot va tadbirlar kiritiladi. Mashg'ulotlar to'garak qatnashchilarining yoshi, jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda joriy etiladi.

To'garaklar faoliyati kengaytirib boriladi hamda ularga tajribali pedagog va murabbiylar jalb qilinadi.

25. Ekologik targ'ibotni keng yo'lga qo'yish mexanizmini takomillashtirish va rag'batlantirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarida turli xil ko'rik-tanlovlar tashkil qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida respublika miqyosida bosqichma-bosqich o'tkaziladigan "Eng yaxshi ekologik toza maktab", "Eng yaxshi ekolog o'quvchi" kabi ko'rik tanlovlarni o'tkazishga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

Ko'rik tanlovlarni tashkil qilish va o'tkazishda umumiy o'rta ta'lim muassasasi jamoasining ekologik huquq va majburiyatlari, muassasada o'tkaziladigan ekologik tadbirlar soni, uni o'tkazish vaqti va tartibini belgilashga alohida e'tibor qaratiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

5-bob. O'rta maxsus, professional ta'lim tizimida ekologik ta'limni takomillashtirish

(5-bobning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.06.2021-y., 09/21/345/0522-son)

Oldingi tahrirga qarang.

26. O'rta maxsus, professional ta'lim tizimida ta'lim muassasalarining yo'nalishini inobatga olgan holda o'quvchilarga ekologik bilimlar beriladi.

(26-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.06.2021-y., 09/21/345/0522-son)

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida umumiekologik ta'lim talablari bilan bir qatorda atrof muhitni muhofaza qilishning kundalik qoidalari va mahalliy miqyosda barqaror rivojlanishning ekologik xususiyatlari ochib beriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

27. O'rta maxsus, professional ta'lim yo'nalishlariga mos ravishda ekologik ta'lim mavzulari tegishli fanlar tarkibida beriladi.

(27-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.06.2021-y., 09/21/345/0522-son)

Bu borada muayyan umumkasbiy va maxsus fanlar tarkibiga “Asosiy ekologik omillar va ekologik tizimlar to'g'risida tushuncha”, “Tabiatda biologik, geologik bosqichlvr, turli ekologik muammolarning kelib chiqishi sabablari”, “Tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish”, “Ekologiya sohasida innovatsion g'oyalar va texnologiyalardan foydalanish” kabi mavzular kiritiladi.

28. Ekologik ta'limni rivojlantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalaniladi.

29. Tegishli vazirliklar va idoralar vasiyligida akademik letseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'rtasida “Ekologiya bilimdoni” musobaqasi va yo'nalishlarga mos ravishda tanlovlar va boshqa tadbirlar (seminarlar, eko-ekspeditsiyalar, “davra suhbatlari” va ijodiy uchrashuvlar) o'tkaziladi.

6-bob. Oliy ta'lim tizimida ekologik ta'limni takomillashtirish

30. Oliy ta'limning 5630100 — “Ekologiya va atrof muhit muhofazasi” bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlari ekologiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan kelib chiqib takomillashtiriladi.

31. Vazirliklar va idoralarning talab va takliflari, kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va tahlillar asosida ekologik vaziyatning mavjud holatidan kelib chiqib oliy ta'lim tizimida “Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”ga yangi yo'nalishlar va mutaxassisliklarni kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

32. Oliy ta'lim tizimining bakalavriat va magistratura bosqichlari ekologik yo'nalishlarida ekologiya va atrof muhit muhofazasi bo'yicha tegishli o'quv fanlari mazmuni kuchaytiriladi va qo'shimcha mavzular bilan boyitiladi. Talabalarga fan dasturlarida belgilangan hajmda tegishli bilimlar beriladi hamda ularda zarur malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi.

33. Noekologik yo'nalishlarda tegishli o'quv fanlariga ekologiya va atrof muhit muhofazasiga oid mavzular kiritiladi hamda ilm-fanda erishilgan yutuqlar, ekologiya va atrof muhit muhofazasiga oid yangi texnologiya va tadqiqotlar asosida muntazam yangilanib boriladi.

34. Ekologiya va atrof muhit muhofazasi ta'lim sohasi bo'yicha magistrlik dissertatsiyalari tayyorlanadi, zamonaviy va dolzarb ilmiy-amaliy masalalarga bag'ishlangan mavzular bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar o'tkaziladi.

Noekologik ta'lim sohalari bo'yicha magistrlik dissertatsiyalari tayyorlanishida tegishli mutaxassisliklarga xos bo'lgan ekologiya va atrof muhit muhofazasiga oid masalalar dissertatsiya ishining asosiy mavzu va yo'nalishlariga mantiqiy javob beradigan tarzda yoritib boriladi.

35. Oliy ta'lim muassasalarining amaliyot darslari bevosita yirik sanoat korxonalarini, ilmiy-tadqiqot muassasalarini, suv xo'jaligi tashkilotlari, qo'riqxonalar, ekologik inqiroz kuzatilayotgan hududlar va ekologiya sohasidagi boshqa korxonalarda olib borilishi yo'lga qo'yiladi.

36. Ekologiya sohasidagi mavjud Internet veb-saytlariga talabalarni qiziqtiruvchi materiallar kiritib boriladi, shuningdek, turli tanlovlar (“Eng qiziqarli maqola muallifi”, “Eng dolzarb material muallifi” va boshqalar) tashkil etiladi.

37. Oliy ta'lim muassasalarining davriy nashrlarida, shuningdek, gazeta va ilmiy jurnallarda ekologiya va atrof muhit muhofazasiga bag'ishlangan ruknlar ochiladi va unda professor-o'qituvchilar, magistrantlar va talabalarning ushbu masalalarga bag'ishlangan ilmiy maqolalari chop etib boriladi.

38. Oliy ta'lim muassasalarini, talabalar turar joylarida “Eko-klublar” tashkil qilinadi, ularning yillik rejalari tuziladi hamda faoliyati ta'minlanadi.

39. Internet tarmog'ida ekologik ijtimoiy sahifalar tashkil qilinadi, fikr almashishni yo'lga qo'yish maqsadida internet-platformalar va messenjerlar joriy etiladi, ular yordamida yoshlar ishtirokida “flesh-mob”, “xeshteg” va ekologik masalalarga bag'ishlangan, yoshlarni qiziqtiruvchi boshqa tadbirlar muntazam amalga oshirib boriladi.

7-bob. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimida ekologik ta'limni takomillashtirish

40. Ilmiy faoliyat blokida ekologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi ekologik ta'limdan kelib chiqib takomillashtiriladi, tadqiqotchilar tomonidan ixtisoslashtirilgan ilmiy va ta'lim muassasalarida ekologiya sohasida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar amalga oshiriladi.

41. Ilmiy-tadqiqot ishlarida ekologiya sohasidagi mustaqil izlanuvchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalari shakllantiriladi, izlanuvchilar tomonidan ekologiya sohasida fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llash imkoniyati yaratiladi.

42. Doktoranturada ekologiya va atrof muhit muhofazasi muammolariga doir doktorlik dissertatsiyalarining mavzulari yanada izchil shakllantiriladi, bu borada chuqur nazariy va amaliy tadqiqotlarni tizimli ravishda yo'lga qo'yish va ularning sifati va samaradorligini oshirishga tizimli yondashuv ta'minlanadi.

8-bob. Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bosqichlarida ekologik ta'lim tizimini takomillashtirish

43. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha davlat talablari, o'quv dasturlari zamonaviy talablar asosida qaytadan ishlab chiqiladi.

44. Barcha ta'lim muassasalarida pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga oid ta'lim dasturlari qayta ko'rib chiqiladi, ushbu dasturlarda ekologik ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan mavzular mantiqiy ravishda o'z o'rnini topishiga erishiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida dars mashg'ulotlarini olib boradigan tajribali mutaxassislar va professor-o'qituvchilar tarkibi shakllantiriladi.

Mashg'ulotlar zamonaviy talablar asosida ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda olib boriladi.

45. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida, shuningdek, sanoat korxonalarini va tashkilotlar ekolog kadrlarining malakasini oshirish ishlari tubdan qayta ko'rib chiqiladi, ushbu yo'nalishda o'qitish dasturlari ishlab chiqiladi va malaka oshirish ishlari tizimli tashkil qilinadi.

9-bob. Maktabdan tashqari ta'lim tizimida ekologik ta'limni takomillashtirish

46. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi to'garaklar o'quv dasturlariga Barqaror taraqqiyot ta'limi konsepsiyasida belgilangan vazifalar kiritiladi. Barqaror taraqqiyot uchun ta'limga oid yo'nalishdagi to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining tegishli yo'nalishi (ekologiya va o'lkashunoslik) o'quv dasturlari tahlil qilinadi.

47. O'quv dasturlari mazmuni bolalarning qiziqishini oshiruvchi, mustaqil ekologik tadqiqotlar olib borishga yo'naltirilgan mashg'ulot va topshiriqlar bilan boyitiladi.

48. Bolalarni maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining tegishli yo'nalishlariga jalb etishni kuchaytirishning ta'sirchan mexanizmlari ishlab chiqiladi.

10-bob. Konsepsiya amalga oshirilishidan kutilayotgan natijalar

49. Mazkur Konsepsiya ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, yoshlar orasida ekologik bilim va madaniyatni targ'ib qilish, ekologiya sohasini ilg'or innovatsion texnologiyalarni jalb etgan holda yanada takomillashtirish, yoshlarning ona tabiatni sevish va uni ko'z qorachig'idek asrashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

50. Konsepsiyaning amalga oshirilishi Vatanimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni izdan chiqishdan asrashga xizmat qiladi hamda aholi barcha qatlamlarining ekologik madaniyatini oshirishga salmoqli hissa qo'shadi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha tadbirlar rejasi

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Moliyalashtirish manbai	Ijro uchun mas'ullar
I.Maktabgacha ta'lim tizimida					

1.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun belgilangan davlat ta'lim talablari va ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish.	<p>1) Maktabgacha ta'lim vazirligi mutaxassislaridan iborat ishchi guruh tuzish;</p> <p>2) davlat ta'lim talablari va ta'lim dasturlariga ekologik ta'lim-tarbiya yo'nalishida ilg'or milliy va xorijiy tajribani o'rganish va ular asosida bolajonlarda ekologik madaniyatni shakllantirish parametrlarini belgilash;</p> <p>3) davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari mazmunini bolajonlarda ekologik madaniyatni shakllantirish parametrlaridan kelib chiqqan holda tahlil qilish va qo'shimcha indikatorlarni belgilash.</p>	<p>2019-yil iyun</p> <p>2019-yil oktyabr</p> <p>2020-yil yanvar</p>	Mablag' talab etilmaydi	Maktabgacha ta'lim vazirligi (A. Shin), Davlat ekologiya qo'mitasi (B. Kuchkarov)
2.	"Ilk qadam" tayanch dasturining atrof muhit va tabiatga doir mavzularini tahlil qilish hamda zarur o'zgartirishlar kiritish.	<p>1) dasturda ona tabiatni asrab-avaylash, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi mavzularni ko'paytirish;</p> <p>2) "Ilk qadam" tayanch dasturida ko'zda tutilgan ekologik ta'limga oid mavzular va amaliy mashg'ulotlarni to'laqonli ravishda tashkil etish maqsadida "Ekolog bolajon" dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.</p>	<p>2019-yil avgust</p> <p>2019-yil oktyabr</p>	Mablag' talab etilmaydi	Maktabgacha ta'lim vazirligi (A. Shin), Davlat ekologiya qo'mitasi (B. Kuchkarov)
3.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ekologiya burchaklari"ni tashkil etish.	<p>1) maktabgacha ta'lim tashkilotlarining "Ekologiya burchaklari" namunalarini ishlab chiqish va tasdiqlash;</p> <p>2) maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tasdiqlangan namuna asosida "Ekologiya burchaklari"ni tashkil etish.</p>	<p>2019-yil avgust</p> <p>2019-2020-yillar davomida</p>	Maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	Maktabgacha ta'lim vazirligi (A. Shin), Davlat ekologiya qo'mitasi (B. Kuchkarov), O'zbekiston ekologik harakati (B. Alixanov)

